

INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA CHAQIRIQ VA DA'VAT MAZMUNIDAGI AFORIZMLARNING O'RGANILISHI

Xosiyat Toshtemirova

Termiz davlat universiteti

Lingvistika (ingliz tili) ta'lif yo'naliishi magistranti,

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15385612>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilshunoslida chaqiriq va da'vat mazmunidagi aforizmlarning o'rganilishi tahlil qilinadi. Aforizmalar — qisqa, lekin ma'noli va ko'pincha ijodiy ifodalar bo'lib, ular ko'pincha harakatga chaqirish yoki ma'lum bir ideallarni targ'ib qilish maqsadida ishlataladi. Maqolada ingliz tilidagi chaqiriq va da'vat ifodalarining turli madaniyatlarda qanday qabul qilinishi va ular qanday faol kommunikativ vosita sifatida ishlatalishini o'rghanish muhim ahamiyatga ega. Bunda, aforizmalar nafaqat so'z san'ati sifatida, balki tilning kuchli manipulyativ vositasi sifatida tahlil qilinadi. Maqola davomida zamonaviy ingliz tilidagi chaqiriq va da'vat aforizmlari, ularning lingvistik xususiyatlari va maqsadli auditoriyaga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: aforizmlar, chaqiriq, da'vat, ingliz tilshunosligi, kommunikatsiya, lingvistika, ijodiy ifoda, madaniyat, til va muloqot, tilshunoslik tahlili.

Aforizmlar, qisqa va mazmunli fikrlar bo'lib, ko'pincha hayotning turli jahbalarini ifodalaydi. Ingliz olimlari aforizmlarni o'rghanishda tarixiy, madaniy va falsafiy kontekstlarni e'tiborga olishadi. Ular, asosan, aforizmlarning ta'siri va roli, ularning til va adabiyotda o'rni, hamda inson psixologiyasidagi ahamiyatini o'rghanishga qaratilgan. Ingliz tilida aforizmlarni o'rghanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 17-asrda Fransis Bekon va Jon Dryden kabi mutafakkirlar aforizmlarning jamiyatdagi rolini ta'kidlashgan. Ular aforizmlarni hayot tajribasi va aqidalarini ifoda etishning samarali vositasi sifatida ko'rganlar. Shuningdek, 18-asrda Jozef Addison va Riçard Steele "The Spectator" jurnali orqali aforizmlar va ularning ijtimoiy muloqotdagi ahamiyatini yanada rivojlantirdilar.

Keyinchalik, 19-asr va 20-asrlarda ingliz adabiyotida aforizmlarga bo'lgan qiziqish kuchaydi. Oscar Wilde, Samuel Johnson va George Bernard Shaw kabi adabiyot namoyandalari aforizmlarni o'z asarlarida keng qo'llaganlar. Wilde ning "Aforizmalar" to'plami, ayniqsa, qisqa va mazmunli fikrlar bilan boy bo'lib, ularning kulgili va kashfiyotchilik jihatlarini ta'kidlaydi.

Samuel Johnson esa, o'zining "A Dictionary of the English Language" asarida ko'plab aforizmlarni kiritgan, bu esa ularning tarqalishiga va o'rghanilishiga xizmat qilgan. Ingliz olimlari aforizmlarni o'rghanishda ularning tilshunoslik, psixologiya va falsafa bilan bog'liqligini ham inobatga olishadi. Aforizmlar, o'z navbatida, insoniyatning umumiy tajribasini ifodalaydi va qaysi madaniyatda paydo bo'lgan bo'lsa, u erda o'ziga xos qiyofaga ega bo'ladi. Shuning uchun, aforizmlarning o'rghanilishi ko'plab sohalarni qamrab oladi va bu jarayon zamon o'tishi bilan yanada kengayib boradi.

Natijada, ingliz olimlarining aforizmlarni o'rghanishi nafaqat ularning madaniy va ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi, balki zamonaviy adabiyot va tilshunoslikda yangi yo'naliishlarni ham ochadi. Aforizmlar, qisqa, lekin mazmunli shaklda, insoniyatning falsafiy va axloqiy qadriyatlarini aks ettiradi va bu ularning o'rghanishini yanada tezlashtiradi.

Ingliz tilshunoslari tomonidan aforizmlar bir qancha tilshunoslар tomonidan o'rghanilgan va biz e'tiborga loyiq bo'lgan bo'lgan bir nechta asarlarni tahlil qildik.

Bunday ishlardan biri Jonatan E. Edwardsning aforizmlarning til va fikrlashdagi ahamiyatini chuqur o‘rganishga bag‘ishlangan “*Aphorisms: A Study of Their Cognitive and Pragmatic Functions*”¹ nomli dissertatsiyasi hisoblanadi. Ushbu dissertatsiyaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, aforizmlar kognitiv va pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Edwards aforizmlarning murakkab g‘oyalarni soddalashtirishdagi, madaniyat va ijtimoiy kontekstlar orqali axloqiy qadriyatlarni yetkazishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. U, shuningdek, aforizmlarning kommunikativ roli, ijtimoiy aloqalar va fikrlarni yetkazishdagi funksiyalarini muhokama qiladi.

Tadqiqot, aforizmlarning zamonaviy kommunikatsiyadagi o‘rni va ularning tilshunoslik, psixologiya va madaniyatshunoslik sohalaridagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Edvardsning asari aforizmlar bo‘yicha mavjud nazariyalarni kengaytiradi va ingliz va o‘zbek tillaridagi chaqiriq va da’vat mazmunli aforizmlarni o‘rganishimda qimmatli manba vazifasini o‘taydi. Jonatan E. Edwards aforizmlar sohasida, xususan, lingvistika va adabiyot tadqiqotlari bilan mashhur bo‘lgan olimdir. U aforizmlarning til tuzilmalari, funksiyalari va madaniy ahamiyatlarini tarixiy va zamonaviy kontekstda o‘rganishga bag‘ishlangan. Edwardsning interdisipliner yondashuvi lingvistika, falsafa va adabiyot nazariyasini birlashtirib, aforizmlarning inson kommunikatsiyasidagi ahamiyatini chuqur tushunishga yordam beradi.

Edwards mazkur ishida aralash uslubdan foydalanadi, bu esa sifatli va miqdoriy tadqiqot usullarini birlashtiradi. U ko‘plab aforizmlarni o‘rganish uchun korpus lingvistikasidan foydalanadi, bu esa aforizmlarning foydalanishidagi o‘zgarish va tendentsiyalarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu metodologiya uning tadqiqotining empirik mustahkamligini oshiradi va aforizmlarning lingvistik xususiyatlarini tushunishga imkon beradi.

Shuningdek, Emily J. O‘Konnoring “*The Pragmatics of Aphorisms: A Study of Their Function and Use in Contemporary English*”² asari aforizmlarning zamonaviy ingliz tilidagi muloqotdagi ahamiyatini pragmatik jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda aforizmlarning ijtimoiy kontekstda qanday ishlatilishi, muloqotda qanday funksiyalarni bajarishi va ularning kommunikativ rolini aniqlashga qaratilgan. O‘Konnor, aforizmlarning qisqa, lekin ma’nodagi chuqurligini va ularning fikrlarni taqdim etishdagi samaradorligini tahlil qiladi.

Ushbu asar zamonaviy kommunikatsiyadagi aforizmlarning ahamiyatini ko‘rsatish bilan birga, ularning til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligini ham ochib beradi. Tadqiqot, tilshunoslar va adabiyotshunoslar uchun aforizmlar haqidagi mavjud nazariyalarni kengaytirishga yordam beruvchi yangi yondashuvlarni taqdim etadi va o‘zbek tilidagi aforizmlar ko‘rib chiqilishi va ingliz tili bilan qiyoslanishida muhim manba hisoblanadi.

Emily J. O‘Konnoring “The Pragmatics of Aphorisms: A Study of Their Function and Use in Contemporary English” asari aforizmlarning zamonaviy ingliz tilidagi muloqotdagi pragmatik jihatlarini o‘rganishga qaratilgan muhim tadqiqotdir. Ushbu asarning ilmiy yangiligi quyidagi jihatlardan iborat:

1. *Pragmatik tahlil yondashuvi*. O‘Konnor, aforizmlarni pragmatik jihatdan tahlil qilib, ularning muloqotdagi ahamiyatini va foydalanuvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlardagi rolini aniqlaydi. U, aforizmlarning nafaqat ma’no, balki kontekstga qarab qanday ta’sir ko‘rsatishini ham o‘rganadi.

¹ Jonathan A.Edwards.”The Intersection of Aphorisms and Social Media:Communication in the Digital Age”, University College London,2021.

² Emily J. O‘Konnor“The Pragmatics of Aphorisms: A Study of Their Function and Use in Contemporary English,University of Birmingham, 2012

2. *Aforizmlarning funksiyalari.* Asar, aforizmlarning muloqotdagi turli funksiyalarini – masalan, hikmatni taqdim etish, fikrlarni qisqacha ifodalash, hissiyotlarni yetkazish va ijtimoiy normalarni belgilash kabi jihatlarni chuqur o‘rganadi.

3. *Zamonaviy muloqotdagi rol.* O‘Konnor, aforizmlarning zamonaviy kontekstda, xususan ijtimoiy tarmoqlarda qanday ishlatilishini va ularning muloqot jarayonida qanday ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu, aforizmlarning yangi kommunikativ muhitda qanday moslashayotganini tushunishga yordam beradi.

4. *Misol va tadqiqotlar.* Tadqiqot jarayonida turli misollar va tadqiqotlar keltiriladi, bu esa aforizmlarning tushunilishi va qabul qilinishidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. O‘Connor, zamonaviy aforizmlarning tahlili orqali yangi aforizm yaratish jarayonini ham o‘rganadi.

O‘Konnoring dissertatsiyasi quyidagi yutuqlarga erishdi:

1. Nazariy asoslarni kengaytirish: O‘Konnor, aforizmlarning pragmatik jihatlarini o‘rganish orqali tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida yangi nazariy asoslarni taklif etadi.

Bu, aforizmlarning kommunikativ rolini yanada aniqlashga yordam beradi.

2. Empirik tadqiqotlar: Aforizmlarning zamonaviy muloqotda qo‘llanilishiga oid empirik tadqiqotlar o‘tkazilib, natijalar assosida amaliy maslahatlar beriladi. Bu, tadqiqot natijalarining real hayotdagi qo‘llanilishini ta’minlaydi.

3. Interdisipliner yondashuv: O‘Konnoring asari tilshunoslik, psixologiya va sotsiologiya kabi turli fanlar kesishmasida joylashgan bo‘lib, aforizmlarning ijtimoiy hayotdagi roli va ahamiyatini keng ko‘lamda tushunishga yordam beradi.

Ushbu ilmiy yangiliklar va yutuqlar aforizmlarning pragmatik jihatlarini keng miqyosda ochib bergen va bu ma’lumotlar dissertatsiya mavzuyimni to‘laligicha o‘rganib chiqishimga yordam berdi.

Aforizmlar sohasida ish olib borgan tilshunos Sarah L. Johnsonning “*The Role of Aphorisms in Language and Thought: A Cognitive Linguistic Perspective*”³ dissertatsiya ham o‘rganilib chiqildi. Asarda aforizmlarning til va fikrlashdagi ahamiyati kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Tadqiqotda aforizmlarning qanday qilib fikrlarni qisqacha ifodalash, ma’noni yetkazish va muloqot jarayonida ijtimoiy normalarni belgilashdagi roli ta’kidlanadi. Johnson, aforizmlarning murakkab fikrlarni oddiy va samarali tarzda yetkazishdagi qobiliyatini o‘rganib, ularning zamonaviy muloqotdagi funksiyalarini ham ko‘rsatadi. Asarda keltirilgan misollar va empirik tadqiqotlar aforizmlarning kognitiv jarayonlarda qanday ta’sir o‘tkazishini aniqlashga yordam beradi. Ushbu asar ingliz va o‘zbek tillaridagi chaqiriq va da’vat mazmunidagi aforizmlarni o‘rganishda amaliy va nazariy ko‘mak berdi.

Sarah L. Johnsonning “*The Role of Aphorisms in Language and Thought: A Cognitive Linguistic Perspective*” asarining ilmiy yangiligi quyidagi jihatlardan iborat:

1. Kognitiv lingvistika yondashuvi: Johnson aforizmlarni kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan tahlil qilib, ularning til va fikrlash jarayonlaridagi o‘rni va ahamiyatini yangi yo‘nalishdan ko‘rsatadi. Bu yondashuv aforizmlarning murakkab fikrlarni ifodalashdagi samaradorligini tushunishga yordam beradi.

2. Til va fikrlash o‘rtasidagi bog‘lanish: Asarda aforizmlarning til orqali fikrlarni qanday shakllantirishi va aks ettirishi haqida chuqur tahlil olib boriladi, bu esa til va fikrlash o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada aniqroq ko‘rsatadi.

³ Sarah L. Johnson “*The Role of Aphorisms in Language and Thought: A Cognitive Linguistic Perspective*, University of Leeds, 2012.

3. Kognitiv jarayonlar: Johnson tadqiqotida aforizmlarning kognitiv jarayonlardagi o'rni va ularning muloqotdagi qobiliyatini o'rganib, fikrlarni tushunish va taqdim etishda qanday rol o'yashini muhokama qiladi.

4. Interaktiv tahlil: U aforizmlarni tilshunoslik va psixologiya nuqtai nazaridan interaktiv tahlil qiladi, bu esa o'rganish jarayonini yanada boyitadi va yangi nazariyalar yaratishga yordam beradi.

5. Praktik qo'llanishi: Johnsonning asari aforizmlarni ta'limda, madaniyatda va kundalik muloqotda qanday foydalanishni o'rganish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi, bu esa til o'rganishda va fikr almashishda aforizmlardan qanday samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

J. Masonning 'Aforizmlar: Qisqa shakllar nazariyasi'⁴ asari aforizmlarni alohida adabiy shakl sifatida tushunishga muhim hissa qo'shamdi. Ushbu kitobda Mason aforizmlarning tabiatini, xususiyatlari va til hamda adabiyotdagi funksiyalarini o'rganadi. Muallif aforizmlarni umumiy haqiqatlar yoki prinsiplarni ifodalovchi qisqa bayonotlar sifatida ta'riflaydi, ularning aqliy, paradoksal va axloqiy jihatlari bilan ajralib turishini ta'kidlaydi.

Mason aforizmlarning muloqotdagi ko'plab maqsadlariga xizmat qilishini, ular donolik, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy normalarni etkazuvchi vosita sifatida harakat qilishini ta'kidlaydi. U kontekstning aforizmlarning ma'nosi va ta'sirida qanday ahamiyatga ega ekanligini ajratib ko'rsatadi, chunki ularning qisqaligi ko'pincha o'quvchilardan yoki tinglovchilardan izohlovchi harakatlarni talab qiladi. Aforizm va uning auditoriyasi o'rtasidagi bu interaktiv munosabat Masonning tahlilida markaziy mavzu hisoblanadi.

Kitobda aforizmlarning lingvistik xususiyatlari, ularning sintaktik va semantik tuzilmalari o'rganiladi. Mason aforizmlarni ularning qiziqarli va samarali bo'lishiga yordam beruvchi retorik uslublarga asoslanib tasniflaydi, masalan, antitezis, alliteratsiya va parallelizm. U shuningdek, aforizmlarning tarixiy rivojlanishini ko'rib chiqadi, ularning qadimgi falsafiy an'analaridan to zamonaviy foydalanishgacha bo'lgan ildizlarini izlaydi.

Bundan tashqari, Mason aforizmlarning kognitiv jihatlarini ko'rib chiqadi, ularning inson kognitsiyasi tizimida qanday ishlashini muhokama qiladi. U aforizmlarni murakkab g'oyalarni soddalashtirilgan shaklda etkazishda foydalanish mumkinligini ta'kidlaydi, bu esa ularni keng auditoriyaga tushunarli va aloqador qiladi. Ushbu kognitiv nuqtai nazar aforizmlarning qanday qilib turli muloqot shakllarida, jumladan, adabiyot, siyosat va kundalik suhbatlarda saqlanib qolishining sabablari haqida tushunishni oshiradi. Mason kitob davomida turli madaniyat va davrlardan mashhur aforizmlarning ko'plab misollarini keltiradi, ularning abadiy ahamiyati va moslashuvchanligini ko'rsatadi. Ushbu misollarni tahlil qilib, u aforizmlar qanday qilib ularni shakllantirgan jamiyatlarning qadriyatlari va e'tiqodlarini aks ettirishi mumkinligini namoyish etadi, bu esa madaniy normalar va falsafalar uchun ko'zgusiga aylanadi.

Masonning Aforizmlar: Qisqa shakllar nazariyasi asari aforizmlarni chuqur va izchil o'rganishni taqdim etadi, bu esa til va adabiy tahlil uchun qimmatli asoslarni taklif etadi.

Aforizmlarning muloqotdagi ko'p qirrali roli va ularning kognitiv jihatlarini o'rganishi bu asarni til, adabiyot va madaniyatning kesishgan joylariga qiziqqan olimlar va talabalar uchun muhim manba sifatida belgilaydi va o'z navbatida chaqiriq va da'vat mazmunli afrorizmlarning ma'noviy jihatdan tahlil qilishga yordam beradi.

⁴ Mason, J.Aphorisms: A theory of the short form .New York.Routledge, 2004

L. Davisning “*Falsafiy aforizmlar: Tanqidiy tahlil*”⁵ asari aforizmlarni, ayniqsa, falsafiy kontekstda chuqur o‘rganishga qaratilgan muhim bir tadqiqotdir. Ushbu kitobda Davis aforizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari, tuzilishi va ularning muloqotdagi rolini tahlil qiladi. U, aforizmlarning qisqa va aniq shaklda murakkab g‘oyalarni ifodalash qobiliyatini ta’kidlaydi.

Davis, asarning kirish qismida, aforizmlarni o‘rganishning muhimligini va ularga bo‘lgan qiziqishni oshirish zarurligini ko‘rsatadi. U, aforizmlarning tarixiy va madaniy kontekstlari, shuningdek, ularning falsafiy g‘oyalari va tushunchalari bilan bog‘liqligini muhokama qiladi. Bu nuqtai nazardan, aforizmlar insoniyatning tafakkur tarixi va axloqiy qadriyatlarining aks-sadosi sifatida qabul qilinadi.

Kitobning asosiy qismida Davis aforizmlarni tahlil qilishda turli metodologik yondashuvlarni qo‘llaydi. U, aforizmlarning til va ma’no jihatlarini o‘rganib, ularning qanday qilib ko‘plab ma’nolarni o‘z ichiga olishi va yangi g‘oyalarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko‘rsatadi. Davis aforizmlarning o‘ziga xos til xususiyatlarini, jumladan, simvolizm, metafora va ironiya kabi retorik vositalarni tahlil qiladi. Shuningdek, Davis aforizmlarni falsafiy nuqtai nazardan o‘rganadi, ularda aks etgan g‘oyalarni tanqidiy ravishda ko‘rib chiqadi. U, aforizmlarning mantiqiy strukturasi va ularning hayotiy ma’nosini o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi. Kitobda keltirilgan misollar orqali, u aforizmlarning inson hayotidagi roli va ularning axloqiy va falsafiy qadriyatlar bilan bog‘liqligini yoritadi. Davisning Falsafiy aforizmlar:

Taqidiy tahlil asari, shuningdek, zamonaviy aforizmlarning ijtimoiy va madaniy kontekstlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, aforizmlarning xalqaro va madaniy farqliliklari haqida fikrlarni taqdim etadi. U, aforizmlarning turli madaniyatlarda qanday shakllanishini va ularning muloqotdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Davisning asari aforizmlarni chuqur va ko‘p qirrali tahlil qilishga yordam beradi. U, aforizmlarning falsafiy, lingvistik va madaniy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan muhim bir manba hisoblanadi. Ushbu asardagi madaniy jihatlarini o‘rganish orqali ingliz va o‘zbek tillaridagi chaqiriq va da’vat mazmunidagi aforizmlarni qiyoslab o‘rganishda ko‘mak beradi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. -Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori: PQ-1875-son // lex.uz/DOCS/2126032.
3. Hamdamova Sitora Baxshilloyevna. Uilyam Butler Yeats she’riyatida mifologik mavzular va motivlar. Ispaniya innovatsiyalar va yaxlitlik jurnali 6 (2022): 147-150 b.
4. Imom Buxoriy hadislari, “Sharq” nashriyoti, 1-kitob, 2020, 324-bet
5. Alisher Navoiy. Munshaot. Asarlar. O‘n besh tomlik. T.13. — T.:1967 220- bet

⁵ Davis,L.Philosophical Aphorisms:A Critical Analysis.Oxford:Oxford University Press:2010